


2

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

2013-yil  
25-mart  
N:12  
(66917)



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

# SHUKRONALIK SHODIYONASI



O.ORIPOV surati

## NODIRBEKKA PREZIDENT SOVG'ASI TOPSHIRILDI

Xabaringiz bor, o'tgan yili Sloveniyaning Maribor shahrida tezkor shaxmat bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida yosh shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorov barcha raqiblarini ortda qoldirib, jahon chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'lgan edi. Yaqinda unga Prezident sovg'asi topshirildi. Bu yuksak e'tibor yosh iqtidor egasini ulkan g'alabalar, yangi marralar sari ruhlantirsa, ajab emas.

Jonajon diyorumizda yoshlik, go'zallik timsoli, yasharish, yangilanish fasli bo'lmish ko'klamning munavvar ayyomi - Navro'zi olam shukuhi kezib yuribdi. Ming yillik qadim qadriyatlarimizga hamohang bu ajib ayyom yurtimizning bayramona bezangan shahar-u qishloqlarida, guzar-u xiyobonlarida, bilim maskanlari - yu kichkintoylar davrasida o'zgacha ruhda tantana qilinmoqda. Turli madaniy va ma'rifiy tadbirlar, xalq sayli, sumalak bazmi, ko'pkari, arqon tortish kabi milliy o'yinlar bellashuvleri tarzida o'tayotgan shodiyonalarda bobolarimizdan meros qadriyatlarimiz, milliy an'ana va udumlarimiz bor bo'y-basti, go'zalligi bilan ko'z o'ngimizda namoyon bo'lmoqda. Qalbida yashash, yashnatish zavqi jo'sh urayotgan yurtdoshlarimiz bahor va baxt bayrami bilan bir-birlarini qutlab, samimiy tilaklar, ezgu niyatlar bildirishyapti. Nuroniy otaxon-u onaxonlarimiz Navro'z ayyomining tarixi, mazmun-mohiyati, qadr-qimmati haqida so'zlab, dil-dildan shukronalik hissini tuysalar, yoshlarimiz dunyo ahli havas qilsa arzigulik mana shunday qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz borligidan faxrlanib, ularni kuy va qo'shiqlarida, ash'orlarida, go'zal raqslarida tarannum etishmoqda.



Buyuk ajdodlarimiz

...Sohibqiron Amir Temur ko'p mamlakatlarni egallab, o'zining «Besh yillik yurishi» davrida (1392-1396-y.) Iroqdagi Mordin qal'asini ishg'ol qilish arafasida turganida, Sohobqiron huzuriga chopar kelib, uning nabirali bo'lganini, munajjimlarning bu jaji chaqaloq kelgusida mashhur olim, ham hukmdor bo'lishini bashorat qilishgani haqida xushxabar yetkazadi. Amir Temur bu xushxabarni eshitgach, Mordin qal'asi qamalini bekor qiladi, chaqaloqqa esa Muhammad Tarag'ay - Ulug'bek deb ism qo'yadi...

Bolajonlar, gap kim haqida ketayotganini allaqachon bilib, anglab olgandirsiz. Yulduzlar xaritasini aniq tuzib, dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk qomusiy olim, davlat arbobi Muhammad Tarag'ay - Ulug'bek bobomizning 619 yilligini bu yil keng nishonlaymiz.



Manbalarda keltirilishicha, Amir Temur Mirzo Ulug'bekni juda yoshligidanoq hukmdor bo'lishga tayyorlagan ekan. U bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida qatnashgan. Mirzo Ulug'bek Samarqandga

hukmronlik qilgan davrda boshqa davlatlar bilan bevosita savdo va madaniy aloqalar rivoj topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morchilik, adabiyot, ilmfan yuksalib, Buxoro, Samarqand va G'ijduvonda madrasalar barpo etilgan.

Ulug'bekning ilm-fan rivojiga qo'shgan eng buyuk hissasi Samarqand ilmiy maktabi - o'sha davr akademiyasini barpo etganidir. Bu maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat yuritgan. Ular orasida yirik olimlardan biri Ali Qushchi ham bo'lib, bobokalonimiz yulduzlar haqidagi kitobining so'zboshisida unga «Farzandi arjumand», ya'ni «Aziz farzandim», deya ta'rif beradi.

Istiqlol yillarida Mirzo Ulug'bek kashf qilgan yulduzlarning biriga uning nomi berildi. Bobomiz hukmronlik qilgan shahar - Samarqandga ulkan haykali o'rnatildi. Chet ellik astronomlarning e'tiroficha, Ulug'bek tuzgan «Yulduzlar jadvali» hozirgi kunda kompyuter tuzgan xaritadan birozgina farq qilarkan, xolos. Mirzo Ulug'bekning tabarruk nomi samodagi eng ulkan, so'nmas yulduz misoli avlodlar qalbida e'zozlanadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

BUGUNGI E'TIBOR - ERTANGI G'ALABALARGA POYDEVOR



Bolaligimni eslasam, sinfdosh do'stlarim bilan to'p tepib yuradigan maktabimiz stadioni tez-tez yodimga tushadi. To'g'risi, bu yerda sport bilan shug'ullanishning deyarli imkoni yo'q edi. Shunday bo'lsa ham darslardan so'ng tengdosh do'stlarim bilan o'yingoh chetida toshdan darvoza yasab, futbol o'ynashga urinaridik. Maydonning notekisligi sabab ba'zida jarohat ham olib turardik. O'sha kezlarda «Qaniydi, maktabimizda yangi o'yingoh, sport zali qurilsa-yu, biz ham mazza qilib sport bilan shug'ullansak», degan ezgu niyat ko'p bora qalbindan o'tgan. Shukrki, bundan bir necha yil avval Dardooq qishlog'imizda zamonaviy sport inshooti qad rostladi. Ayni paytda qishlog'imiz bolalari nafaqat futbol, balki sportning boks, tennis, karate, basketbol, voleybol kabi ko'plab turlari bilan muntazam shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Har gal Dardooqqa borsam, u yerda qishloq yoshlarining ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlardan ko'nglim osmon qadar yuksaladi...

Albatta, bunday o'zgarishlar o'z-o'zidan sodir bo'layotgani yo'q. Mamlakatimizda bolalar sportiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Farzandlarimizni ommaviy tarzda sportga jalb etish, ayniqsa, qizlarni sport bilan shug'ullanishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, yoshlarimiz orasida

sog'lom-turmush tarzini keng targ'ib etish yo'lida ko'plab xayrli va ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Quvonarlisi, bolalar sporti aynan ta'lim tizimi bilan uzviy holda olib borilayotgani, qo'lga kiritayotgan yutuqlarimizda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunga kelib, yurtimizda 1 million 800 ming bola turli sport turlari bilan muntazam shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgani yuqoridagi fikrimiz tasdig'i, albatta.

Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov raisligida Oqsharoyda o'tkazilgan O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishida ana shu yutuqlarimiz yana bir bor tilga olinib, galdagi qilinishi lozim bo'lgan ishlar muhokama qilindi.

Tadbirda Prezidentimiz Islom Karimov nutq so'zlab, bolalar sportida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimizga alohida to'xtalib o'tdi. Ayniqsa, davlatimiz rahbari futbol bo'yicha O'zbekiston o'smirlar terma jamoasining Osiyo chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'lgani, to'qqiz yoshli jajigina shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorovning 2012-yilda Sloveniyaning Maribor shahrida dunyoning 126 mamlakatidan qariyb 2600 nafar sportchi ishtirokida bo'lib o'tgan tezkor shaxmat bo'yicha jahon chempionatida g'olib chiqqani, shuningdek, mohir suzuvchi qizlarimiz Shohida Zohidova, Sevara Boboqulova, Gulsanam Yo'ldoshevaning

sinxron suzish bo'yicha Indoneziyada bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida kumush medalga sazovor bo'lishganini alohida e'tirof etib, bunday iqtidorli yoshlar haqida ko'proq yozishimiz, xalqimizga yanada kengroq ma'lumotlar berishimiz zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, bolalar sportini rivojlantirishning ahamiyati haqida to'xtalib, jumladan shunday dedi: «...Sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim vositasi bo'lib kelmoqda va kelajakda shunday bo'lib qolishi muqarrar. Chunki sport sog'lom avlod, sog'lom kelajak degani. Binobarin, faqat sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi».

Bundan tashqari, yig'ilishda mavjud sport inshootlarini zaruriy sport anjomlari bilan ta'minlash, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, malakali sport murabbiylarini tayyorlash masalalari haqida so'z bordi.

Aziz o'quvchilar, ko'rib turganingizdek, bugun yurtimizda Sizlarning ilm olishingiz, sport bilan shug'ullanishingiz uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Shunday ekan, ko'plab iste'dodli tengdoshlaringiz qatori ilm-ufan cho'qqilarini zabt etib, sport bilan muntazam shug'ullanib, o'z iqtidor va qobiliyatingizni namoyon etishga harakat qiling. Shunda yurtimizning nurli kelajagiga munosib hissangizni qo'shgan bo'lasiz.

**E Z G U**  
O'tgan 10 yil davomida Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1113 ta bolalar sporti obyekti, jumladan, 252 ta yangi sport kompleksi, 861 ta sport zali barpo etildi. E'tiborlisi, bularning 84 foizi qishloq joylarida qurilib, foydalanishga topshirildi.

**I S H L A R**  
Bolalar sporti obyektlarini zaruriy sport anjomlari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgani bois, bugungi kunda 120 turdagi sport inventarlari va uskunalarining 114 tasini mamlakatimizning o'zida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

**S A M A R A S I**  
Ayni paytda yurtimizda umumta'lim maktablariining soni 9600 tani tashkil qilib, ularning 81 foizi yangitdan qurilgan va rekonstruksiya qilingan sport zallariga ega.

2003-yilda bor-yo'g'i 1700 nafar qiz bola badiiy gimnastika bilan shug'ullangan bo'lsa, 2012-yilda ularning soni 36 mingga yetdi.

So'nggi o'n yilda 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'rtasida o'rtacha vazn ko'rsatkichi 43 kilogrammdan 47 kilogrammga, qizlar o'rtasida esa 44 kilogrammdan 48 kilogrammga ortgani kuzatilgan. Bolalarning bo'yi o'g'il bolalar o'rtasida o'rtacha 3 santimetr, qiz bolalar o'rtasida 2,9 santimetr ga o'sgan.

Sa'dullo TURSINOV

## «BOF-BOF» DA SHODIYONA

Ko'ngillarimizni yashnatib, o'lka-mizga bahor fasli tashrif buyurdi. Maysalar yerdan bosh ko'tarib, daraxtlar kurtak yozib, qishki uyqudan uyg'onish-moqda. Bahorning yomg'irlari insonlar qalbidagi qishdan qolgan g'uborlarni yuvib, iliq ko'klam yosh qalblarimizni yoritib yuborganday, go'yo. Bahorda keng nishonlanadigan bayramlarimizdan biri Navro'z ayyomidir. Bu bayram men tug'ilib o'sgan «Bot-bot» qishlog'ida ham keng nishonlanadi. Bayram kuni tong sahardan qishlog'imiz o'rtasidagi tepalikda joy hozirlanadi, doshqozonlarda palov damlanadi. Tushga tomon yosh-u qari tepalikka to'planadi. Ayollarning har biri o'zi tayyorlagan ovqat yoki turli pishiriqlar, ko'k somsa-yu ko'k chuchvaralar bilan chiqadi. Bir kun oldin qozonga solingan sumalak shu yerda

dasturxonga tortiladi. O'g'il bolalar bir tomonda tuxum urishtirish o'yinini o'ynashadi. Bir tomonda ko'pkari, bir tomonda kurash, bir tomonda xo'rozlar jangi musobaqalari o'tkaziladi. Yosh-yalang o'yin-kulgi, laparlar bilan davrani qizitadi. Xullas, barcha kechgacha qirda bayramni nishonlaydi. Bemor yotgan kishilarning holidan xabar olinadi. Shundan so'ng, dehqonchilik ishlari boshlanadi, cho'ponlar toqqa chiqib ketadi. Nuroniy oqsoqollar yil to'kin-sochin kelishini tilab, duoga qo'l ochadi. Ona xalqim, shunday bayramlarning doim bor bo'lsin!

Hilola ERGASHEVA,  
Samarqand viloyati,  
Bulung'ur tumani



Maktabimizda Navro'z bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirida xalqimizning qadim urf-odatlarini e'zozlash, qadrlash maqsadida milliy liboslarda bayramona sahna ko'rinishlari namoyish etdik, qo'shiq va laparlar kuyladik. Yosh pazanda qizlarimiz dasturxonga sumalak, halim, chuchvara kabi milliy taomlarimizni tortiq qilishdi.

## BAYRAMIMIZ ZO'R BO'LDI!



«Taqdirimsan, baxtimsan – erkin va obod Vatan!» mavzusidagi insholar tanlovida 9-«A» sinf o'quvchilaridan Madina Mirzabekova va Maxsuma Qobiljonova g'oliblikni qo'lga kiritishdi. Shuningdek, Navro'zga bag'ishlangan devoriy gazeta va rasmlar ko'rik-tanlovi ham o'tkazildi.

O'quv dargohimizda «Obodlik ko'ngildan boshlanadi» shiori ostida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari tobora qizg'in tus olmoqda. Mevali va manzarali daraxtlarga shakl berish, tagini yumshatish, oqlash kabi yumushlar ko'ngildagidek olib borilmoqda. Maktabimizga kelsangiz, deraza tokchalaridagi anvoyi gullarni ko'rib, bahri dilingiz ochiladi, ko'zingiz quvnaydi.

Feruza ABDULLAYEVA,  
poytaxtimizdagi 134-maktabning 5-«V» sinf o'quvchisi



Navro'z bayrami oldidan o'tkazilgan umumxalq hasharida barcha yurtdoshlarimiz qatori Marg'ilon shahridagi 2-ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining o'qituvchi va o'quvchilari ham faol ishtirok etishdi.

## YANGILANISH AYYOMI

Maktab hovlisi, uning atroflarini supurib, tartibga keltirishdi. Mevali va manzarali daraxtlarga shakl berildi, oqlandi. Maktab atrofidagi Burhoniddin Marg'iloniy nomli «O'zbekiston», «Navbahor», Nurxon nomli ko'chalar, ariq-yoqalari tozalandi, turli gul ko'chatlari ekildi. Maktab maydonchasi yangidan ta'mirlandi.

So'ngra, ustozlar-u shogirdlar sport maydonchasiga yig'ilib, xalqimizning azaliy bayrami – Navro'zi olamni zo'r shodiyonalar bilan nishonlashdi.

Bayram tantanasida maktabning «Qaldirg'och» nomli ashula va raqs dastasi qatnashchilari tomonidan «Navro'z ayyomingiz muborak bo'lsin!» deb nomlangan bayram dasturi namoyish etildi. Xushovoz yosh san'atkorlar bahorni, ona Vatanni, Navro'zni, Istiqlolni, baxtli bolalikni, tinchlikni madh etuvchi kuy-qo'shiqlar, dilrabo raqslar ijro etishdi.

Eng faol, a'lochi o'quvchilar maktab rahbariyati tomonidan «Faxriy yorliq»lar, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi Muhtarama Mirzayeva o'quvchilarni yangilanish va ezgulik ayyomi Navro'z bilan qizg'in muborakbod etdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Marg'ilon shahri



Bayram arafasida o'quv dargohimizda «Muomala ham ziynat» mavzuida kecha o'tkazildi. Kechada o'quvchilar o'rtasida so'zlashish va muomala odobi, madaniyati haqida fikr almashildi.

## CHIROYLI MUOMALA HAM ZIYNAT

– Inson nomini ulug'laydigan omillardan biri shirinsuxanlikdir, – dedi faol o'quvchilardan biri Durdona Keldiyorova. – Kishining aql-idroki, axloq-odobi, bilim va madaniyati uning tili orqali belgilanadi.

– So'zlarning eng yomoni yolg'on so'zdir, – dedi Toshtemir O'rinboyev.

– Yolg'onni hatto hazil tariqasida ham gapirib bo'lmaydi.

Tadbir ishtirokchilariga ushbu «So'zlovchi nodon bo'lsa ham, tinglovchi dono bo'lsin», «Eshitgan so'zlaringizning eng go'zalini yozing, yozgan so'zlaringizning eng go'zalini yodlang. Yodlagan so'zlaringizning eng go'zalinigina yodda saqlang» singari hikmatli so'zlarni misol qilib keltirdim.

Tengdoshlari tomonidan mavzuga doir tayyorlangan fotoalbom, buklet va suratlar ko'rgazmasini o'quvchilar katta qiziqish bilan tomosha qilishdi.

Kecha ishtirokchilarda katta taasurot qoldirdi.

Jamila JO'RAYEVA,  
Jizzax shahridagi 1-umumta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi



# TIRIKLIK OLAMINING ONASI

Jonajon diyorumiz tabiati go'zal, betakror. U ulkan xazinalar makoni, mo'jizalar olami. Saxiylukda, bag'rikenglikda betimsol xilqat. Shuning uchun ham uni onalarga qiyoslab, «tabiat» so'ziga «onajonim» so'zini egizak qilamiz. Tabiatning beg'uborligini asrash, kelajak avlodlarga ham sofligicha yetkazishdek ezgu ishlarga oz bo'lsa-da, hissa qo'shish maqsadida gazetamiz orqali «Onajonim tabiat» nomli insholar va rasmlar tanlovini o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylandi. Ana shu ibratli an'anani davom ettirgan holda yil boshida tanlov shartlari e'lon qilingan edi. Ayni kunlarda tahririyatimizga kelayotgan maktablarning aksariyatini mazkur tanlovga yo'llangan ijodiy ishlari tashkil qilyapti desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugun ana shunday ishlardan saralab, qo'shsahifa tayyorladik.

O'qing, fikr-mulohazalaringiz bilan o'rtoqlashing.

Siz ham tanlovda ishtirok eting.

## XULOSA CHIQRARISH SIZDAN

Bobo-momalarimiz qadimda ariq va anhorlarning suvlari toza, musaffo bo'lganini, ana shu suvlarda oqizoq qilib non yeyishganini bot-bot takrorlashadi. Ularning «Bolam, suvni ifloslantirmanglar, chunki suv tiriklik manbai, azaldan insonni poklaydigan obi hayot hisoblanadi», degan maslahatlarini tez-tez yodga olib turamiz.

Uyimiz soyga yaqin bo'lganligi uchun har kuni kechga yaqin mahalladoshlarimizning xazondan tortib, turli chiqindilargacha suvga tashlashlariga ko'p marta guvoh bo'lganman. Soydan kelayotgan qo'lansa hidga, ayniqsa, kunlar



isiganda, umuman chidab bo'lmaydi. Dimog'imiz bu achimsiz hidga to'lib, kayfiyatimiz buziladi. Bunday xatolarga yo'l qo'yayotgan yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish o'rniga ayrim katta yoshli mahalladoshlarimiz o'zlari bolalariga «o'rnak» bo'lishmoqda.

Men «Onajonim tabiat» rasmlar va insholar tanloviga bir nechta rasmlar yuboryapman. Shoyad ijodiy ishlarim orqali tabiatga xo'jasizlarcha munosabatda bo'layotgan ayrim insonlarni tartibga chaqira olsam. Axir «Tabiatga mehr ko'rsatsang, u ham senga mehr beradi, saxovatini ayamaydi, agarda qo'pol munosabatda bo'lsang, qahrini sochib, jazolaydi», deyishadi-ku!

Zarina NURMATOVA

Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabi o'quvchilari

Men ko'p qavatli binolarning birida yashayman. Bir kuni maktabdan qaytayotgan, uyimiz atrofida axlat sochilib yotganiga ko'zim tushdi. Unga kirib, kiyimlarimni tezda almashirdim-da, darhol supurgi va chelak olib pastga tushdim. Uyimiz atrofini chiqindilardan tozalashga kirishib ketdim. Yo'lakka suv sepib, atirgullar, daraxtlarning tagini yumshatib qo'ydim.



## BAHRI DILIM OCHILDI

Atrofga nazar tashlab, kayfiyatim ko'tarildi, qilgan ishmdan mamnun bo'lib, bahri dilim ochildi. Daraxtlar egilib, menga rahmat aytayotgandek edi, go'yo... Onam ham meni maqtab: «Yerning yuzini ochgan, tozalagan odam savobga qoladi», dedilar.

Ertasi kuni maktabdan qaytayotgan, ne ko'z bilan ko'rayki, kechagina tozalagan hovlimiz yana yelim xaltalaridagi chiqindilarga to'lib ketgan edi. Bu noxush holatni ko'rib, ta'bim xira bo'ldi. Axir bu chiqindilarni uloqtirgan kishilar ham shu yerda yashashadi-ku. Nahotki, uylaridan chiqqan chiqindilarni maxsus joylarga olib borib tashlashga erinisha?! Men yana supurgimni qo'limga olib, choratrofni tozalashga kirishib ketdim...


Aziz tengdoshlar! Ona tabiatni asrash, tabiiy muvozanat buzilishining oldini olish biz yosh avlod qo'lida ekan, keling, yon-atrofimizni tozalab, yashab turgan go'shamizni obod qilaylik.

Mohinabonu HAMIDULLAYEVA, Shayxontohur tumanidagi 324-maktabning 4-«B» sinf o'quvchisi

## MAMNUNMIZ

Maktabimiz qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi mashg'uloti har shanba kuni bo'lib o'tadi. Ustozimiz bizga tabiatni muhofaza qilishni, o'simliklar, hayvonlar va qushlarga g'amxo'rlik qilishni o'rgatadilar. Biz daraxtlarga qushlar uchun inlar qurib, don sepib qo'yamiz. Gullar ekib, mevali ko'chatlar o'tqazamiz. Maktabimizdagi barcha sinf o'quvchilari o'z sinf xonalarida ko'plab manzarali gullar parvarish qilishadi. Biz ona tabiatni asrab-avaylashga oz bo'lsa-da, hissa qo'shayotganimizdan juda mamnunmiz.

Dilsora HAMIDOVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 2-maktab o'quvchisi



Insonlar qadimdan og'ir qo'l mehnatini yengillashtrish yo'llarini izlashgan va bu maqsadda turli texnika vositalarini ixtiro qilishgan. Yuqori tezlikka erishish uchun tezyurur poyezd-u mashinalar yaratishgan.

Hozirgi kunda aksariyat yumushlarni aqlli mashinalar bajaradi. Texnika va transport vositalari ham kundan kunga ko'payib bormoqda. Buning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari bor. Ulardan

## TABIATNI RANJITMANG

Xalqimizda yaxshi bir an'ana bor: keksalar boshchiligida mahallalarning yosh-u qarisi bahorning ilk kunlaridanoq hasharlar uyushtirib, ko'cha, ariq va zovurlarni tozalashga kirishib ketishadi. Axir tozalik, pokizalik bor joyda baraka bo'ladi-da. Kunlar iligach, dov-daraxtlarga shakl beriladi, yerlar yumshatilib, mevali, manzarali daraxt ko'chatlari o'tqaziladi.

Bu nihollar kelgusida azim daraxtlarga aylanib, bizni musaffo havo bilan ta'minlaydi, zaharli gazlardan himoyalaydi. Aziz tengdoshlar, daraxtlar gullagan paytda shunchaki havasga ularning shoxlarini sindirib olmang, egilib qolgan nihollarga ko'zingiz tushsa, qaddini tiklab, bog'lab qo'ying. Shunda siz ham tabiatning gullab-yashnashiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shgan bo'lasiz. Biz ona tabiatga ozor yetkazmasligimiz kerak. Chunki uning oqib-oyanchli bo'lishi mumkin.

Amirbek HAKIMOV, Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi 7-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi

## AYNI MUDDAQ BO'LARDI

chiqayotgan zararli tutunlar, shuningdek, kimyoviy laboratoriyalar, zavodlar, atom elektr stansiyalari ona tabiatimizga qanchalik zarar keltirishi hammamizga ma'lum. Zaharli gazlar ozon qatlamini yemirib, quyoshdan taralayotgan ultrabinafsha nurlar ta'sirida insonlar o'rtasida turli xavfli kasalliklar ko'payishiga, iqlimning keskin o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Agar bu gaplarga ishonmasangiz, zaharli tutun chiqaradigan zavodlar, ishlab chiqarish korxonalarining atrofini sinchiklab kuzating: u yerda gurkirab, ko'karib turgan birorta daraxtga ko'zingiz tushmaydi.

Bu gapimiz bilan yuqoridagi zavodlarning faoliyatini to'xtatib qo'yish kerak, degan fikrdan yiroqmiz, albatta. Ammo mutasaddi amakilarimiz havoga ana shunday zaharli gazlar tarqalishining oldini olish haqida ko'proq bosh qotirishsa, ayni muddaq bo'lardi.

Dilmurod XOLBO'TAYEV



## ZAMINIMIZ SHO'RLANMASIN

Biz istiqomat qilayotgan Palonze qishlog'i viloyatimizning chuqurroq yerida joylashgani bois, hosildor yerlarimiz, ekin maydonlarimiz sho'rlanib, bog'-u rog'larimizdagi hosildorlik tobora kamayib bormoqda, chuchuk suv zaxirasi yo'qolib, o'rmini sho'r suv egallamoqda.

Ona yerimizni o'z bolasidek ardoqlayotgan mehribon hamda zahmatkash insonlar mehnati, sa'y-harakatlari tufayli bunday muammolarning oldini olish borasida amaliy



ishlar boshlab yuborildi. Shuningdek, saxiyqalb inson Rahim bobo Salimovning tashabbuslari bilan katta quduq ishga tushirilib, qishloq ahli tabiiy toza ichimlik suviga ega bo'ldi. Bundan yosh-u qari birdek quvonib, boboni duolar qilishmoqda.

Kelajakda men biologiya fani

o'qituvchisi bo'lish niyatidaman. Zaminimiz sho'rlanishining oldini olish, tabiiy chuchuk suv zaxiralarini ko'paytirishdek ezgu ishlarga hissa qo'shib, hamqishloqlarimni mamnun qilmoqchiman.

Gulnoza XALILOVA, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 51-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi


## BESHARIONING BO'LAJAK RASSOMLARI

Salom, yurtimiz bolalari va o'smirlarining sevimli gazetasi «Tong yulduzi!» Biz senga Farg'onaning Besharion tumanidagi Ropqon qishlog'idan maktab yo'llayapmiz. Biz sahifalaridagi tengdoshlarimiz ijodi, yozgan maqola-yu xabarlarini zavq-u shavq bilan o'qiyamiz. Darsdan bo'sh paytlarimizda maktabimiz qoshidagi «Tasviriy san'at» to'garagiga qatnaymiz. To'garak a'zolari bir ovozdan kelishib, «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanloviga qatnashishga ahd qildik. Shu maqsadda chizgan rasmlarimizdan tahririyatga yuboryapmiz. Ularni gazeta sahifalarida ko'rsak, xursand bo'lardik.

Salom bilan 27-umumta'lim maktabining bir guruh o'quvchilari.



Ozoda ESHMATOVA



Fotima QODIROVA



Xursanoy JAMILOVA

## OMADIMNI SINAB KO'RAMAN



Men Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi 15-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida o'qiyman. «Tong yulduzi» gazetasi har bir sonini muntazam o'qib boraman. Gazetada e'lon qilingan «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovini o'qib, juda xursand bo'ldim. Ushbu tanlovda qatnashish niyatida «Tabiatni asrash o'z qo'limizda» mavzusida chizgan bir nechta rasmlarimni tahririyatga yuboryapman. Ular tengdoshlarimga ma'qul bo'ladi, degan umiddaman.

Gavharoy TOHIROVA

## Tanlov shartlarini yana bir bor eslatib o'tamiz:

Yurtimiz tabiati, atrof-muhit, atmosfera, yer va suv resurslarini muhofaza qilish, ekologik holatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarda o'quvchilar faolligini oshirish, tabiatga oqilona munosabatni shakllantirish, ekologik madaniyatni yuksaltirish, yosh avlodning murg'ak qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Ekologik harakati hamda «Tong yulduzi» Respublika bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorligida «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovini o'tkazadi.

## Tanlov shartlari quyidagilardan iborat:

- O'zlar yashab turgan mahalla, qishloq, tuman, shahar tabiati, ekologik muammolari hamda ularni bartaraf qilishga doir fikr-mulohazalari asosida insho, mavzuga oid chizilgan rasmlar (insholar hajmi 3 qo'zdan oshmasligi lozim).
- O'zlar tahsil olayotgan maktab qoshidagi «Yosh tabiatshunoslar» to'garagi faoliyati haqida qisqacha ma'lumot. Insholaringizni shu yil 15-mayga qadar quyidagi manzilga yo'llang: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. e-mail: info@tongyulduzi.uz

Qo'shimcha ma'lumot uchun telefon: 244-63-08. Faks: (8371) 244-38-10 «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanloviga, deb yozing. Tanlov 2013-yil 5-iyun – «Butunjahon atrof-muhit kuni» arafasida yakunlanadi.

G'oliblar Diplomlar hamda homiy tashkilotlarning qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

**TANLOVGA MARHAMAT!**

## SEN BUNCHALAR SUYUKLISAN-A?!

Tugab qishning sovuq kunlari,  
Yomg'ir yuvdi yuzin gullarni.  
Xushnud etding barcha dillarni,  
Bahor, buncha suyuqlisan-a?!

Seni qancha intiqib kutdim,  
Sovuq qishdan zerikib ketdim.  
Shukurkim, shu kunlarga yetdim,  
Bahor, buncha suyuqlisan-a?!

Bog'-rog'larni chechaklar bezar,  
Kelinchakdek ko'klamoy kezar.

Bir ajoyib sabolar esar,  
Bahor, buncha suyuqlisan-a?!

Chashmalardan oqar zilol suv,  
Tark aylagay ko'zlarni uyqu:  
Sumalakka chorlagan tuyg'u -  
Bahor, buncha suyuqlisan-a?!

**Madina NORMATOVA,**  
Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani



## KO'KLAMOY

Erimoqda qorlar tog'larda,  
Gulga kirdi bodom bog'larda.  
Yasharish bor har yaproqlarda,  
Sog'inganim keldi, bahoroy!

Qir-adirda ochildi lola,  
Yashillikka burkandi dala.  
Hayotdan zavq olar har bola,  
Sog'inganim keldi, bahoroy!

Yomg'ir yog'ar endi tomchilab,  
Goh tezlashib, goh munchoqchalab.  
Dil yayratar gullar g'unchalab,  
Sog'inganim keldi, bahoroy!

Dehqonbobo oshiqar qirga,  
Ekin-tikin ekmoq-chun yerga.  
Ta'rifini solayin she'rga,  
Sog'inganim keldi, bahoroy!

**Mahfuza PO'LATOVA,**  
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi  
15-maktabning 6-sinf o'quvchisi

## BUXORO

Vatan ichra chamanim,  
Chaman ichra Vatanim,  
Onamsan deb aytganim,  
Buxorosan, Buxoro.

Al-Buxoriy, Naqshband,  
Nomi dilda sarbaland,  
Dilimizga dil payvand,  
Buxorosan, Buxoro.

Labihovuz minorang,  
Gumbazlarda turfa rang,  
Sirlarga to'la qal'ang,  
Buxorosan, Buxoro.

Men ham sening farzanding,  
Seni onam deb aytdim,  
Ko'hna, boqiy, alp qaddim -  
Buxorosan, Buxoro!


**Xumora KAMOLOVA,**  
Buxoro viloyati,  
Kogon tumanidagi  
3-umumta'lim maktabining  
8-«A» sinf o'quvchisi

**B**olalik, bahor, boychechak, bayram - bunday go'zal tushunchalar qalbga navro'zona kayfiyat olib kiradi. Ularning biri ikkinchisini to'ldiradi. Bolalik - inson umrining navbahori. Bunday o'xshatishda, bolalikning bahorga qiyoslanishida hikmat bor. Bahor yilning uyg'onish, yasharish, tozarish fasli sanaladi. Bolalik ham «zangor fasl». Bahor yilning go'dakligi, bolaligi, yoshligi, fasllar erikasi. Bolaga hamma narsa yarashadi - o'yin-kulgi, hazil-huzul, erkalik, sho'xlik. Shu ikki tushunchani bir joyda jamlagan Hazrat Navoiy bir turkum she'rlarini «*Bolalik bahori g'unchasining ajib gullari*», deb ta'riflaydi. Bahorda osmon musaffo ko'rinadi. Uning, tubini, yuragini, ko'kning ko'ksini ko'rish mumkin. Xuddi shuningdek, insonning bolalik davri ham begidir, toza, orzularga boy bo'ladi. Oq-u qorasi yaqqol ajralib turgan bola ko'zlari bahor osmonidek musaffo, kirlanmagan, g'uborlanmagan mo'jizaviy olam. Shoir aytmoqchi:

«Bahor norasida go'dakday shirin,  
Qo'ynida ezgulik armon yashirin».

(A.Oripov).

Bahor bilan bolalik orasida juda ko'p o'xshashliklar bor. Bog'lardagi go'zallik, qizillik, bahordagi tozalik, uyg'onish, yashillik, daraxtlar yelkasiga yopgan oq liboslar, rango-rang gullar - hamma-hammasi ilhom sarchashmasi. Bahorning har kuni yangi kun, har kuni Navro'z. Bahorning har tuni tabarruk, har tuni qadrli. «Har tuning qadr o'lubon, har kuning o'lsun Navro'z» (Navoiy); «Ilohi har kuning Navro'z bo'lsun, hamisha toleing



feruz bo'lsun» (Ogahiy). Yilboshi, bahor ayyomi ostonasida bobokalon shoirlarning yuragidan chiqib, qog'ozga tushgan va tilga ko'chgan tilaklari shunday.

Bolalikka hayrat va hayajon yarashadi. Bahordagi gullar iforiga, rangiga hayrat va hayajon ranglari qo'shiladi. «Yana sahni chaman bo'ldi munaqqash rangi gullardin» (Bobur). Chaman, gul, chiroy, latofat, rang-barang, shuningdek, gul yonida bulbul, daraxtlar boshi uzra qushlar - barchasi faqatgina bahorga yarashadi. «Gul uzra andalibu sarvning boshida qumrilar» (Furqat). Bunday manzaradan odam yasharib ketadi, umidlari ildiz otadi, orzulari kengayadi. Bolalar tezroq kattarishni istab qoladi, kattalar orti-oldiga

qaraydi, yo'lni chamalaydi, manzilni ko'zlaydi; keksalar ko'ngli bilan dunyo kezadi: tog'larga chopib chiqadi, qirlarda yelday uchadi - xuddi ertaklarda aytilganidek chollar bola bo'lib qoladi. Bahorning mo'jizasi shunday. Bolalikni bahoriy o'yinlar bezaydi; bolalik xotiralarda osmon-u falakda vizillayotgan varrak ovozi bilan sayhonliklarda suruvga haydalgan qo'y-qo'zilarning ma'rashlari uyg'unlashib ketadi.

Ming nag'ma bilan goh yeryapaloq uchayotgan, goh osmon bag'riga sho'ng'igan tutqich bermas qaldirg'och bilan suhbat boshlanadi:

«Qaldirg'och-g'och,  
Eshigingni och-och».

Bolalik eshik taqillatadi. Shirindan-shirin shartlar qo'yadi. Ora-orada tomchilayotgan yomg'ir bolani sergaklantiradi:

«Yomg'ir yog'aloq,  
Yam-yashil o'tloq».

Bola ko'ngli g'ashlanmaydi, zavqiga zavqlar qo'shiladi, tabassumi kulgi bilan, kulgisi qahqaha bilan uyg'unlashadi. Bola arg'umoqdek osmonga sapchiydi; bola kamalak beliga arg'imchoq solib havoda sollanadi. Bahor bilan egizak bolalik yam-yashil o'tloqda yumalab yotadi. Bahordan bolani, bolalikni ajratib bo'lmaydi.

Osmoniy xayollar og'ushidan yerga engan odam yana bahorga, bahoriy bir kayfiyat quchog'iga kelib tushadi. Xayol sayohatlaridan soy bo'yiga, o'tloqqa, o'tloqdan qishloqqa qaytgan, ha, darvoqe, ochiqqan bola bahoriy taomlar yonida bir muddat to'xtaydi: doshqozon boshida sumalak yalaydi, ko'k somsa ishtahasini qo'zg'aydi...

Bahodir KARIM

Besh yoshli Xayrinisaning opasi O'g'iloyga juda havasi kelardi. Chunki u hademay maktabga boradi-da. Har gal, men ham maktabga boraman, deya xarxasha qilganida, buvijonisi, albatta borasan, faqat odobli qiz bo'lib, o'qish va yozishni o'rgansang bo'ldi, derdi.



Sh.MUSAKOVA olgan surat

## OPA-SINGIL SINFDOSHILAR

Jajji Xayrinisa o'sha kundan boshlab harflarni o'rgana boshladi. Bildiki, o'qish va yozish oson ish emas ekan. Shunday bo'lsa-da, qunt bilan mashg'ulotini davom ettirdi. Maqsadi esa bitta – opasi bilan birga maktabga borish edi. Tinimsiz mehnatlari o'z samarasini berdi, Xayrinisa o'z orzusiga erishdi. Ustozlar sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan qizaloq 1-sinfga loyiq deb topildi...

O'sha voqealarga ham mana yetti yil bo'libdi.

Bugungi kunda Xayrinisa va O'g'iloy Abdullajonovalar Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 12-maktabning 7-«A» sinfida o'qishmoqda. O'zidan ikki yosh katta bolalar bilan ta'lim olayotgan Xayrinisa sinfdoshlaridan ortda qolmaslik uchun bor kuch-g'ayratini ishga solib, o'qib-o'rganmoqda. Opasi O'g'iloy, sinfdoshlari – Mahliyo,

Madina, Munira, Yodgora kabi qizlar undan yordamlarini ayashmaydi. Sinf rahbari – informatika fani o'qituvchisi Nodira opa Imomnazarova aslida juda talabchan ustoz bo'lsa-da, Xayrinisa o'qituvchisining mehrini hamisha his qilib turadi.

Qiziquvchan, intiluvchan bu qizimiz sportning badiiy gimnastika va suzish turlariga qiziqadi. Shu sababdan ham «Alpomish» sport markazida tashkil etilgan to'garakka qatnab, ustoz Nigora opadan badiiy gimnastikaning sir-asrorlarini o'rganmoqda.

Xayrinisa bilan suhbatlashganimizda, uning orzulari bir olamligini eshitib, quvondik. Maslahatimiz esa bitta: orzuga erishish uchun tinimsiz mehnat, izlanish va intilish zarur.

O'z muxbirimiz

## MUROSASIZ BAHSLAR YAKUNLANDI

Poytaxtimizda shaxmat bo'yicha 12 va 18 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida ikki yuz nafarga yaqin sportchi ishtirok etdi.

Xalqaro shaxmat federatsiyasi – FIDE qoidalariga asosida to'qqiz turdan iborat musobaqada 12 yoshgacha qizlar o'rtasida mag'lubiyatsiz dona surgan samarqandlik Diyoraxon Sharipova birinchi o'rinni egalladi. Surxondaryo viloyati sharafini himoya qilgan Ra'no Abduxoliqova ikkinchi, poytaxtlik Asal Salimova esa uchinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

Yetmish nafarga yaqin shaxmatchi dona surgan o'g'il bolalar bellashuvida barcha sovrinli o'rinlar poytaxt vakillariga nasib etdi. Musobaqada peshqadamlik qilgan Shamsiddin Vohidov to'qqizinchi turda surxondaryolik Muhammad Abdurahmonov bilan durang o'ynab, 7,5 ochko to'pladi va chempion bo'ldi. Saidakbar Saydaliyev – ikkinchi, Fotih Abduxoliqov uchinchi o'rindan joy olishdi.

18 yoshgacha qizlar musobaqasida «Umid nihollari – 2012» g'olibasi navoiylik Mohinur Qahramonova oltin medalga sazovor bo'ldi. Ketma-ket sakkizta partiyani o'z foydasiga hal qilgan shaxmatchi so'nggi turda poytaxtlik Marjona Afolayyan bilan durang o'ynab, jami 8,5 ochko jamg'ardi.

Kumush medal sohibi samarqandlik shaxmatchilar – Shahnoza Tursunova hamda Farida Xursanova o'rtasidagi partiyada aniqlandi. Muhim bahsni o'z foydasiga hal qilgan Shahnoza chempionatni ikkinchi o'rinda yakunladi. Jahon chempionati sovrindori farg'onalik Gulruxbegim Tohirjonova so'nggi turda mezbon shaxmatchi Maftuna Rustamovani yengib, bronza medalini qo'lga kiritdi.

O'smirlar o'rtasidagi musobaqaning so'nggi turida ikki peshqadam – surxondaryolik Bobur Sattorov va poytaxtlik Shavarsh Badalyan durang o'ynadi. Ochkolari sonini yettita ga yetkazgan Bobur chempionlikka erishdi. Shavarsh esa kumush medal bilan kifoyalandi. Samarqandlik Alixon Guseynov buxorolik Saidqosim Aliyev ustidan qozongan g'alabasi evaziga kuchli uchlikdan joy olishdi.

O'zbekiston chempionati g'olib va sovrindorlari mamlakatimiz terma jamoasi safida xalqaro musobaqalarda Vatanimiz sharafini himoya qiladi.

Shoh MUHAMMAD tayyorladi



Nazira xolaning betob bo'lib qolganini bir zumda butun mahallaga yoyildi. Mahalla oqsoqoli boshchiligida faollari kuniga ikki-uch martalab xabar olishadi. Xabar olishmasinmi? Mahalla kayyonisi, eng ardoqli onaxon Nazira xola childirma chalib, laparlari aytganida, davraga tushib o'ynab ketganini bilmay qolasan, kishi. Ertaga esa mahalla guzarida Navro'z bayrami nishonlanadi. Endi buyog'i nima bo'ladi?

Kechki ovqat mahali ham xola xonasidan chiqmadi. O'g'li, kelini kirib shuncha qistovga olishsaying, o'zlarining bahuzur, deb ko'nmadi. Faqat ovqatlanib bo'lgach, nabirasi Elyor birrov oldiga kirishini so'radi. Elyor Nazira xolaning eng suyuqli nabirasi.

Elyor onasi damlab bergan choyini olib kirib, buvisiga bir piyola quyib uzatdi. Keyin esa uning horg'in yuzlariga tikilganicha asta so'radi:

– Buvijon, yaxshi bo'lib qoldingizmi?

Nazira xola issiq choydan bir ho'plam ichib, nabirasiga mehr bilan qaradi:

– Ancha yaxshiman, bolam. Odamlar Miyonqir tomonlarga chiqishmayaptimi, xabaring yo'qmi?

– Bilmadim. Ko'p qor yoqqani uchun hozircha chiqishmayapti, shekilli.

Tog'larga tutashib ketgan Miyonqir qirlari

## OMONLIK-SOMONLIK

(Hikoya)



uncha olis emas. Qimning tepasida issiq buloq bor. «Issiq buloq»ning suvi yozda muzdek, qishda esa iliq bo'ladi. Chashma suvi oqib o'tgan ariq bo'yidagi yalpizlarning hidi ham o'zgacha bo'ladi. Boychechak ham birinchi bo'lib Miyonqirda ochiladi.

– Miyonqirning yalpizini, boychechagini sog'indim, bolam. Buvang har yili erta bahorda olib chiqardi. Mayli, kirib barvaqt yot. Ertaga guzarga chiqib, mening o'mimni bildirmay xizmat qilgin, savob bo'ladi.

Ertasi kuni ertalab Elyorni o'rinda ko'rmagan otanasi buvisining yonida yotib qolgandir, deb o'ylashdi. Hovliga chiqqan Nazira xola nabirasini so'rganida esa hayron bo'lshidi. Otasi yugurishga chiqqandir, deb mahalla atrofini ikki bor aylanib chiqdi. Nonushta ham tatimadi. Bunday paytda kishi nima qilishni bilmay qolarkan. Shu payt ko'cha eshigi ochilib, Elyor kirib keldi. Shimining pochasi tizzasiga qadar loyga belangan. Bir qo'lida yelim xalta, ikkinchi qo'lida uch-to'rtta boychechakni avaylabgina bag'riga bosib olibdi. U otanasiga shoshganicha salom berib, buvisining xonasiga kirib ketdi. Hovlini tog' yalpizining o'tkir ifori tutib ketdi...

Nazira xola nabirasining Miyonqirga borib kelganini eshitib, hayron bo'ldi. Boychechakni ohistagina olib, ko'zlariga surlib, «Omonlik-somonlik, hech ko'rmaylik yomonlik», dedi. Keyin esa yelim xaltadagi yalpizdan hovuchiga to'ldirib olganicha, to'yib-to'yib hidladi. Elyorni bag'riga bosib, ko'zlariga yosh oldi. So'ng esa uni yetaklaganicha hovliga chiqib, so'ri ostidagi nonushta stoliga borib o'tirdi.

– Kelinposhsha, bir piyoladan choy ichaylik, keyin mahalladagi bayramga chiqamiz. Ha, aytganday, chiqmagan qayerda edi...

YUSUF og'a

Navro'z ayyomi qalblarga olam-olam quvonch bag'ishlovchi, chor-atrofni gul-chechaklar bilan bezab, qizaloqlar sochlariga gulchambarlar taqadigan ajoyib, chindanda betakror bayram. Ariqlar bo'yidan yalpiz-u gul-lolalar terayotgan qizlar yuzida tabassum. Yosh-u qari tabiat qo'yniga, xalq sayliga oshiqadi, shodliklari dunyolarni tutadi. Go'zallikka burkangan diyorumiz Navro'zoyini shunday qarshilaydi. Buni qarangki, kunchiqar mamlakat bo'lmish Yaponiyada ham Navro'zoyini deyarli bizlarday kutib olishar ekan.

Bu qiziq!

## BAYRAMLARIMIZ O'XSHASH EKAN

Yaponiyada 21-mart sanasida nishonlanadigan birinchi bahoriy milliy bayram Syum-bun-Noxi bayrami hisoblanadi. Yaponlar bu kunga faqat kun va tunning tenglashuvi nuqtayi nazaridan emas, balki azaliy qadriyat sifatida qarashadi.

Qadimdan Xigan nomi bilan atalib kelingan ushbu kun 1948-yil «Milliy bayramlar to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilganiday, dam olish kuni deb e'lon qilingan va bayram oldidan obodonlashtirish ishlarining o'tkazilishi an'anaga aylangan. Bayram arafasida yaponiyaliklar ham go'shti taomlardan voz kechib, ko'proq turli o'simlik va ko'katlardan taomlar tayyorlashar ekan. Bizning sumalak kabi bayram shirinligi sifatida esa dasturxoniga guruh, sabzi,



qo'ziqorin, loviya kabi mahsulotlardan pishiriladigan «inari-susi» tortiladi. «Bota-moti» shirinligi shakar va qaynatilgan guruchdan tayyorlanib, tuxum shakliga keltiriladi va kattayu kichikka ulashiladi. Ushbu shirinlik muqaddas taom sifatida e'zozlanib, biror kishiga g'oyibdan omad va baxt kulib boqsa, ko'chma ma'noda «Xuddi boshiga tokchadan «bota-moti» tushganday bo'ldi-ya», deyishar ekan. Ushbu ayyom sakura daraxtining gullashi bayramiga ulanib, haqiqiy sayillar boshlanadi. Ushbu daraxtning gullashini kuzatish uchun kunchiqar yurtga ko'plab sayohlar ham tashrif buyurishar ekan. Yaponlar sakura daraxtining qisqa vaqtiga gullashini esa inson umrining o'tkinchiligi qiyoslashadi.

### QIZLARXON

vaqti bilan uchidan kesib, biron o'simlik moyi yoki tarkibida A vitamini bo'lgan krem surib turing. Shuningdek, limon sharbati va sirka solingan suv bilan chayish ham sochlaringizni jilolantiradi. Piyoz sochlar parvarishida eng yaxshi vosita

Bilib qo'ygan yaxshi

Ko'zlari kulib, yonoqlari ol rangga kirib, bahorning yoqimli tarovalidan bahramand bo'lib yurgan qizlarjon! Mana, go'zal va mastunkor bu fastning stik oyi ham oxirlab boryapti. Kekxalarimiz la'biri bilan «stik ushldi» deb nom olgan bu pallada nafaqat inson tanasi, balki sochlari ham alohida parvarishga muhtoj bo'ladi.

## QIZLARNING KO'RKI

Sochlar latofati, nazokatli, nafosatli qizlarimizning ko'rki-ga ko'rk qo'shadi. Shunday ekan, ularga e'tibor kerak.

Sochlarning ildiziga qatq bilan tuxumni aralashtirib, bir soatcha surib qo'yish, so'ngra moychechak, yalpiz, dalachoy o'tlari damlamasida chayish yaxshi natija beradi. Sochlaringiz quruq bo'lsa, tez sinuvchan, to'kiluvchan bo'ladi. Buning uchun 1 osh qoshiq zaytun yog'iga 1 dona tuxum sarig'i va bir choy qoshiq asal qo'shib suring, foydasini sezaris.

Agar sochlaringiz uchi gullab ketgan bo'lsa, vaqti-



hisoblanadi. Uning suvi qon aylanishini yaxshilaydi.

Boshda qazg'oq paydo bo'lishida esa quyidagi niqobni bir necha bor takrorlash lozim: 5 osh qoshiq zaytun yog'i qizdirilib, yarimta limon sharbati qo'shiladi. Niqobni soch ildiziga yaxshilab surib, ikki soatdan so'ng yuvib tashlang. Sochlaringiz ildizi baquvvat bo'lib, qazg'oqdan tozalanaadi.

Aziz qizlarjon, sochlaringizga e'tiborli bo'ling. Zero, sog'lom sochlar salomatlik belgisidir.

MANZURA tayyorladi. Surat muallifniki

25-mart 2013

## KO'KLAMNING SHIFOBAXSH NE'MATLARI

Qish mavsumida inson tanasidagi darmondorilar zaxirasi kamayib, bahorda tez toliqadigan, kamquvvat bo'lib qoladi. Bahorda dorivor giyohlar, ko'katlardan tayyorlangan omsa, varaqi, chuchvara kabi tansiq taomlar kishi tanasiga kuch-quvvat, mador bag'ishlaydi. Yurak faoliyatini yaxshilashda ularga teng keladigani yo'q. Quyida bahor taomi sumalak hamda ayrim giyohlarning shifobaxsh xususiyatlari haqida ma'lumot beramiz:



### SUMALAK

Bahorda bug'doydan tayyorlanadigan darmondorilarga nihoyatda boy taom. U E darmondorisining manbai bo'lib, kishi tanasiga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Sumalak qon bosimi, surunkali gepatit, qabziyat va asab tizimi xastaliklarida yaxshi davo bo'ladi.

### OTQULOQ

Uning tarkibida nordon kaliy tuzi, askorbin kislotasi, K vitamini, karotin, temir moddasi, rutin mavjud. Shuningdek, ildizida oshlovchi moddalar bor. Xalq tabobatida yallig'lanishga qarshi, peshob haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, o't haydovchi, ichni yurishtiruvchi dorivor sifatida qo'llaniladi. Og'iz bo'shlig'i yallig'langanda, uning damlamasi bilan og'iz chayiladi.



### YALPIZ

O'zining xushbo'y hidi bilan boshqa o'simliklardan ajralib turadigan giyoh. Uning barglarida 2,5 foiz efir yog'i mavjud bo'lib, doridarmon tayyorlashda keng qo'llaniladi. Yalpiz damlamasining tindirmasi yengil tinchlantiruvchi, qon bosimini tushirish, ko'ngil aynishi, qusish, ichaklar og'rishi, yog'larning hazm bo'lmashligi, jigar xastaliklari, asab qo'zg'alishi kabi kasalliklarda tavsiya etiladi.

### ISMALOQ

Bu giyoh qir-adirlarda, yo'l chetlarida o'sadi. Uning tarkibi mineral tuzlarga va A, V, S, E, D, K darmondorilariga juda boy. Bu ko'katni kamqonlikka chalingan bolalar va o'smirlar, kamquvvat qariyalar iste'mol qilsalar, tezda quvvatga kiradilar. Bahor ne'mati bo'lmish ismaloq qondagi gemoglobin miqdorini ko'paytiradi. Oshqozon osti bezi faoliyatini yaxshilaydi, kishilarda kasallikka qarshi kurashish immunitetini ko'taradi.



Dil OROM tayyorladi

8



Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Jahongir MUSAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Quroqboq ERGASHEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir  
Dilorom HOTAMOVA  
Rassom Feruz  
MATYOQUBOV  
Dizayner Olovuddin ORIPOV  
Musahhah Nargiza ABDULLAYEVA

Manzilibiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taqoq.

ISSN 2010-6092  
Adadi - 90288  
Buyurtma N: J 6725

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar (jinsiy harakati) Markazi  
Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya jam'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.